


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI
"BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA METODIKASI"
KAFEDRASI

405-BT va STI guruhi talabasi Amanboyeva Mohira Murat qizi
5111700- Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha

bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: "Boshlang'ich sinf o'qish darslarini tashkil qilish va o'tkazish
metodikasi (1-sinf misolida)"

Ilmiy rahbar:

f.f.n. A. Atajonova



Urganch- 2015-yil



MUNDARIJA

Kirish	2
I bob	
1-sinf o`qish darslarining maqsad va vazifalari, unga q`oyilgan dastur talablari.	
1.1. 1-sinf o`qish darslarining maqsad va vazifalari va 1-sinf o`quvchilariga qo`yiladigan dastur talablari.....	6
1.2. 1-sinf “O`qish kitobi” darsligi va uning tuzilishi.....	11
II bob	
1-sinf o`qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida loyihalashtirish va ularni tashkil qilish yo`llari.	
2.1. 1-sinf o`qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash.....	15
2.2. 1-sinf o`qish darslarini tashkil qilish va o`tkazish yo`llari.....	22
2.3. 1-sinfda o`qishdan umumlashtiruvchi darslarni tashkil qilish va o`tkazish.....	39
Xulosa	53
Foydalanilgan adabiyotlar	55



Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Yurtimizda sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning oʻz ijodiy va intellektual salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun barcha sharoitlar yaratilgan va amalga oshiriladigan vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirishning birdan – bir yoʻli taʼlim standart tizimini tinmay takomillashtirish orqali yosh avlodni ilm – fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Zero, ilm olish yoʻlidagi izlanish insonning eʼtiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, maʼnaviy – axloqiy kamolot sari yetaklaydi.

Boshlagʻich taʼlim “Taʼlim toʻgʻrisida” gi qonunni hayotga tadbqiq etishda muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tili oʻqitish asosiy oʻrin egallaydi.

Maʼlumki, boshlangʻich sinflarda oʻqish darslarida oʻquvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi kishilar hayoti haqida, ularning oʻtmishi, hozirgi yashash hayoti hamda mashhur kishilar toʻgʻrisida bilib oladilar. Ularga tabiat, ob-havo, boyliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar haqida bilimlar beriladi. Bilim olish jarayonida munosabat uygʻotiladi. Bilim berish bilan oʻquvchi shaxsi ham tarbiyalanib boriladi. Sinfda oʻqish darslariga taʼlim-tarbiya vazifalari kompleks ravishda hal qilinadi. Shuningdek, oʻquvchlarning ijobiy sifatlari shakllanadi, ular aqliy va estetik jihatdan kamol topadilar. Mustaqil ravishda bilim olish asoslarini egallaydilar.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy hayotidagi oʻzgarishlar yangi davr talablari asosida ijodiy ishlaydigan tashabbuskor, tadbirkor, mohir va har tomonlama qobiliyat egasi boʻlgan kadrlar tayyorlashni taqazo qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov taʼkidlaganidek: “Bugungi kunda oldimizga qoʻygan buyuk maqsadlarimiz, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalombor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bogliqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz”. (2.74-75)



Bilimli har tomonlama rivojlangan, jamiyatni taraqqiy ettirishga qodir kadrlarni yetishtirish ishiga maktabdayoq tamal toshi qo'yiladi. Ta'limga berilgan e'tibor – jamiyatga berilgan e'tibor. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayoni taraqqiy ettirish va yuksaltirish ishlariga mustaqillik yillarida juda katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirda "O'zbekistonda har yili ta'lim olish uchun sarflanadigan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etadi". (3.11)

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ta'lim sohasida olib boriladigan ishlarning mazmuni va istiqbolini belgilab berdi.(6; 7.) Bular asosida Davlat ta'lim standarti, dasturlar va darsliklarning yangi avlodlari yaratildi. Ta'limda rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanilmoqda. Ta'limni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga doir tajribalar to'planmoqda va tobora kuchayib borayotgan raqobat asrida faqat chuqur islohotlar va modernizatsiya yo'lidan tinimsiz va qat'iyat bilan rivojlanib borish natijasida o'z oldimizga qo'ygan istiqbolli maqsadlarga – taraqqiy topgan, farovon yashayotgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib hayot darajasini ta'minlashga erisha olamiz". (4.4)

Jamiyat va ilm-fan tinimsiz taraqqiy etaveradi. Yangiliklar yaratilaveradi. Yangiliklarni ta'lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi kun o'qituvchisining vazifasidir. Bilimli, yuqori malakaga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlargina jamiyatning ta'lim oldiga qo'ygan vazifasini amalga oshirishga qodir bo'ladilar. O'qituvchining izlanishi, bugungi kun talablari asosida o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z ustida tinimsiz ishlashi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi va ta'lim jarayonida qo'llay olishi ta'lim samaradorligini oshiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Insonning shakllanishi va ma'naviy yuksalishida ona tilining o'rni beqiyosdir. Barcha bilim va tajribalar ona tili orqali shakllanadi. Shuning uchun ham birinchi sinfdanoq ona tilini o'qitishga alohida e'tibor qaratmoq joizdir.



Boshlang'ich sinfda ona tili ta'limi ona tili va o'qish darslari orqali beriladi. Ona tili va o'qish darslarini yanada takomillashtirish, uni zamon ta'lablari asosida tashkil etish asosiy vazifadir. Shu nuqtai nazardan boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini, xususan, 1-sinf o'qish darslarini samarali tashkil qilish masalasi muhim metodik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois ushbu bitiruv malakaviy ish mavzusi dolzarb hisoblanadi. Mavzuning dolzarbligidan kelib chiqib unda 1-sinf o'qish darslarining tuzilishini, ularni loyihalash va shu asosda tashkil qilish yo'llarini ochib berishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Tadqiqot obyekti 1-sinf o'qish darslarini tashkil qilish va o'tkazish jarayoni hisoblanadi.


Tadqiqot predmeti: 1-sinfda o'qish darslarini tashkil qilish yo'llari .

Tadqiqot vazifalari:

- 1-sinf o'qish darslarining maqsad va vazifalarini, uning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish;
- 1-sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan dastur talablarini ko'rsatish;
- 1-sinf "O'qish kitobi" darsligining tuzilishini yoritib berish;
- 1-sinf o'qish darslarini loyihalash va ularni tashkil qilish yo'llarini o'rganish;
- 1-sinfda o'qishdan umumlashtiruvchi darslarini tashkil qilish va o'tkazish yo'llarini ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot ishida ona tili o'qitish metodikasidagi analiz va sintez, taqqoslash va umumlashtirish, pedagogik kuzatish va mavzuga doir mavjud adabiyotlarni tahlil qilish metodlariga tayanib ish ko'rildi

Tadqiqotning metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi", "Boshlang'ich ta'lim DTS va o'quv dasturi", shuningdek, ta'lim-tarbiya sohasida qabul qilingan qaror va farmonlar, I.A.Karimovning asarlari hamda ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari, mavzuga doir ilmiy-metodik adabiyotlar.




Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- 1-sinf o`qish darslarining o`ziga xos xususiyatlari ko`rsatib berildi;
 - 1-sinf o`qish darslarini loyihalash yo`llari belgilandi;
 - 1-sinf o`qish darslarini tashkil qilish va o`tkazish yo`llari ishlab chiqildi;
- 1- sinfda o`qishdan umumlashtiruvchi darslarini tashkil qilish va o`tkazish yo`llari ko`rsatib berildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.

1-sinf o`qish darslarining maqsad va vazifalari, uni tashkil etish va o`qitish texnologiyasi o`rganib chiqildi. 1-sinf o`qish darslarining ishlanmalari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalaridan boshlang`ich sinf o`qituvchilari, va pedagogika oliy o`quv yurtlarining boshlang`ich ta`lim yo`nalishi talabalari foydalanishi mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi: Ish kirish, II bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Uning hajmi 51 sahifani tashkil qiladi.



I bob


1-sinf o`qish darslarining maqsad va vazifalari, unda o`quvchilar bilim, ko`nikma va bilimiga qo`yilgan DTS talablari.

1.1. 1-sinf o`qish darslarining maqsad va vazifalari.

Ta'lim va tarbiyaning yangicha mazmuni: o`quvchilarning yanada ongini oshirish; o`quv-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish; o`qitish metodlarini hozirgi kun talablari darajasiga ko'tarish; bolalarning bilim qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish; berilgan bilim va ko'nikmalarning ongli, puxta o'zlashtirilishiga erishish; o`quvchilarning mustaqil aqliy mehnat ko'nikmalarini o'stira borish kabi vazifalarni ko'zda tutadi. Boshlang'ich sinf o`quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o`qish mashg'ulotlari orqali amalga oshiriladi. O`qish va nutq o'stirish darslari jarayonida DTS belgilagan mavzular asosida o`quvchilarga muayyan bilim beriladi. O`qish ko'nikmalarini takomillashtira borish bilan bir qatorda o`quvchilarni barkamol yetuk inson ruhida tarbiyalash vazifasi ham diqqat markazda bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda o`qish va nutq o'stirish dasturining maqsad va vazifalariga ko'ra o`qish mashg'ulotlari orqali o`quvchilar to'g'ri, ongli, ravon, tez va ifodali o`qishga o'rgatiladi. Bolalar bu jarayonda kitob bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'la boradilar va ularga kitobga muhabbat tuyg'usi uyg'otiladi.

O`quvchilar ongida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvur va tushunchalarini to'g'ri shakllantirish uchun ularning yoshi va bilim saviyasi hisobga olinishi talab etiladi.

O`qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O`qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo`q. O`qish faoliyati boshlang'ich sinflarda barcha fanlarda amalga oshiriladi, lekin o`qishga o'rgatish o`qish darslarining asosiy vazifasidir. Kichik yoshdagi o`quvchini o`qishga o'rgatishda ularning umumiy rivojlanishini, psixologiyasini hisobga olish zarur. O`quv materialining hajmini oshirib yuborish, tinmay bir maromdagi o`qishni tashkil etish bolani o`qish mashg'ulotidan bezdiradi.



O`quvchilarni qiziqarli topshiriqlar, didaktik o`yinlar asosida o`qitish o`qishga o`yin tusini beradi. Bola o`ynab charchamagandek, o`qib charchaganini sezmaydi.

1-sinfda o`qish darslari bir qancha vazifalarni bajaradi. Xususan, u bola o`qish texnikasini egallashi uchun, avvalo, uning savodxonlik darajasini oshirish, og`zaki va yozma nutqini rivojlantirish, to`g`ri talaffuz etishni o`rgatish lozim bo`ladi.

Dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o`qitilib, o`quvchidagi ko`nikma, malaka aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko`rsatkich – o`qish tezligi, ravon o`qiy olish, bir daqiqada nechta so`z o`qiy olishi belgilanadi.

Bola matn mazmunini to`liq uqib olishi, shuningdek, o`zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

O`quvchining 10 daqiqada 4-5 sahifali matnni o`qib, qayta so`zlab bera olishi, o`zgalar fikrini anglab, uni og`zaki bayon qila olish darajasi aniqlanadi.

Mazkur standart mezonlarining o`zaro uzviy bog`liqligi (integratsiyasi), o`qish, ona tili ta`limida belgilangan vazifalarning amalga oshishida asosiy omil hisoblanadi.

Boshlang`ich ta`limda adabiyot ta`limi tarkibidagi o`qish mazmunining negizi quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- *mavzu doirasi*: Vatan, vatan o`tmishi, hozirgi taraqqiyoti, kelajagi buyuk allomalar, tarixiy shaxslar, xalq qahramonlari, tengdoshlari hayoti, ilm- fan, ma`rifat, madaniyat, mavsumiy o`zgarishlar;
- *janriy xususiyatlari*: hikoya, ertak, maqol, topishmoq, doston, tez aytish, she`r, latifa, lof;
- kitob bilan ishlash;
- so`zlarni to`g`ri talaffuz qilish; bo`g`inlab o`qishdan ongli, sidirg`asiga (tekis), tez, to`g`ri, ravon va ifodali o`qishga erishish;
- o`zbek va xorijiy bolalar yozuvchilari asarlarini o`qish;
- yozuvchilarning ismi-sharifi, asarlarining nomlari haqida to`laroq tushuncha hosil qilish;
- badiiy asarlarni sharhli, ifodali o`qish;



- asar mazmuni va voqealari oʻrtasidagi bogʻlanishni, qahramonlarning feʼl atvorini aniqlash, qiyosiy tavsiflash;
- oʻqigan asarlari yuzasidan oʻz fikr-mulohazalarini ogʻzaki va yozma tarzda izchil ifodalash;
- soʻz boyligini oshira borish va nutqida faol qoʻllash;
- oʻqigan asarlari yuzasidan mustaqil reja tuzish;
- badiiy asarlarni estetik tahlil qilish;
- oʻqigan asarlari yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish;
- nasriy asar mazmunini toʻliq, qisqartirib, shaxsini oʻzgartirib hikoyalash;
- badiiy asarlarni oʻzaro qiyoslab, tegishli xulosalar chiqarish.

1-sinf oʻquvchining DTS boʻyicha oʻzlashtirishi zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalar quyidagilardan iborat boʻladi.

Bilim:



- hikoya, sheʼr, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish janrlari;
- badiiy asar mazmunini bilish;
- asardagi eng qiziqarli lavhalarni bilish

Koʻnikma:

- matndagi soʻzlarning maʼnolarini izohlay olish;
- matn mazmunini koʻrgazmalar vositasida toʻliq qayta hikoyalay bilish;
- tayyor reja asosida asarni toʻliq qayta hikoyalay olish;
- asar qahramonlarining (salbiy va ijobiy) xatti-harakatlarini aniqlash va baholay olish.

Malaka:

- soʻz tarkibida tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish;
- soʻzlarni boʻgʻinlab, soʻng sidirgʻa (tekis) oʻqish;
- hikoya, sheʼr, ertak, topishmoq, maqol, rivoyat, tez aytish janrlaridagi asarlarni ifodali oʻqish;
- bir daqiqada 25-30 soʻzni oʻqish;
- oʻqigan asari yuzasidan oʻz fikr-mulohazalarini bildirish;



- o‘qilgan asar asosida rasm chizish;
- o‘quv yili yakunida 5 ta she‘rni yoddan aytib berish. (10. 24.)

Bu bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash ko‘p jihatdan 1-sinf o‘qish darslarini to‘g‘ri tashkil qilishga ham bog‘liqdir. O‘quvchilar o‘qish darslarida o‘qilgan asar mazmunini to‘g‘ri idrok etishlari, bilimlarni mukammal egallashlari, hayot haqida ma‘lum tasavvurga ega bo‘lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o‘tkaziladi.

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari:

1. O‘quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta‘sir etadigan yangi ma‘lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan voqea-hodisalarni o‘quvchilar o‘z hayotlarida kuzatganlari bilan bog‘lay olishlariga sharoit yaratish. Buning uchun qo‘llanmaning metodik maslahatlar qismidan foydalanish yaxshi samara beradi.

2. Yozuvchining hayoti bilan elementlar tarzida tanishtirish, yozuvchiga, uning hayotiga, ijodiy qiziqish uyg‘otish.

3. O‘quvchilarni asarni emotsional idrok etishga tayyorlash.

4. Asar mazmunini tushunishga murakkablik qiladigan so‘zlarning lug‘aviy ma‘nolarini tushuntirishdan iborat.

Tayyorgarlik ishlarining shakllari xilma-xil bo‘lib, o‘qituvchi asar mazmuni va shakliga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davri uchun 2-5 daqiqa ajratiladi.

Ekskursiya. Bu ish turidan tabiat tasviriga bag‘ishlangan yoki ishlab chiqarish, qurilish, shahar, qishloq hayotiga doir mavzular o‘rganilganda foydalanish mumkin. Chunonchi, “Ulkan hovuz”, “Bahor”, “Navro‘z bayrami”, “Kompyuter”, “Qish”, Amir Temur, Alisher Navoiyga bag‘ishlangan materiallarni o‘rganishdan oldin ekskursiya qilish maqsadga muvofiq. Ekskursiya uchun reja beriladi va matn o‘rganilishidan kamida bir hafta oldin o‘quvchilarga e‘lon qilinadi

Film namoyish qilish. Ba‘zi matnlarni o‘rganishdan oldin o‘quv materialiga doir film namoyish qilinsa, o‘quvchilarning asarni idrok qilishlari faollashadi. Hozir o‘quv filmlari yetarli emas. Ammo videofilmlardan foydalanish mumkin.



**O`qituvchi hikoyasi.** Asar muallifi haqida ma'lumot berishda u eng samarali metod hisoblanadi. Biror shoirnin she'rini ifodali o`qish, hikoya, ertakni ta'sirli bayon etishda uning bolalar uchun yozgan asarlari namoyish etilib, ular haqida qisqacha ma'lumot berilsa, o`quvchilarning asarni o`qishga qiziqishlari ortadi. Tayyorgarlik davridan so`ng 1-bosqich amalga oshiriladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish jarayonida asarning aniq mazmuni bilan, uning syujet chizig`i bilan tanishtirish, asarning emotsional ta'sirini aniqlashdir.

**Matn ifodali o`qib beriladi.** O`qituvchi o`quvchilarga umumiy taassurotlarini aytishni talab qiladigan savollar beradi.

Hikoyaning qaysi o`rni sizga yoqdi?

Qahramonlardan qaysi biri sizga ayniqsa yoqdi?

Siz asar qahramoni o`rnida bo`lishni istarmidingiz?


Hikoya o`qilganda siz qaysi o`rinda juda xursand bo`ldingiz? kabi savollar beriladi. (21.7-8.)

O`quvchilarning borliq, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari, bilimlarini ma'lum bir tizimga solish va boyitish, dunyoqarashini shakllantirish kabi vazifalar bajariladi.

Bo`g`in tuzilishi murakkab bo`lmagan so`zlarni bo`g`inlab to`g`ri o`qish. Bolalar hayoti bilan bog`liq bir bo`g`inli, ikki bo`g`inli so`zlarni bir tekis o`qishlariga erishish. Buning uchun o`qituvchi o`qiladigan asar matnini o`rganish jarayonida o`qilishi qiyin o`rinlarni belgilashi va o`qishni differensial usulda tashkil etishi, ya'ni o`qilishi qiyinroq o`rinlarni yaxshiroq o`qiydigan o`quvchilarga, oson o`qiladigan o`rinlarni o`qish malakasi bo`sh o`quvchilarga o`qitishni mo`ljallashi lozim.

Bo`g`in tuzilishi murakkab so`zlarni kartonga solib yoki xattaxtaga bo`g`inlarga bo`lib yozish, jo`r o`qitish usulidan foydalanish, so`z ma'nosini izohlash yo`li bilan to`g`ri o`qishni amalga oshirish kerak.(8.8.)

1-sinfda o`qishning ovoz chiqarib, ba'zan shivirlab o`qish turidan foydalanish ta'lab etiladi. Chunki o`qituvchi o`quvchilarning to`g`ri o`qishini hisobga olish va to`g`irlash imkoniyatiga ega bo`lishi lozim.



Xulosa qilib aytganda, 1-sinf o`qish darslarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. To`g`ri, tez, ongli va ifodali o`qishga o`rganish. O`qish malakalarini takomillashtirish.
2. O`qish darslarida o`quvchilarni axloqiy tarbiyalash va bilimni rivojlantirish vazifalarini aniq belgilash, dunyoqarashni shakllantirish. Shuning bilan birga ekologik, estetik, mehnat, iqtisodiy va huquqiy tarbiya berish.
3. O`quvchilarda ijodiy tasavvur, nutq va tafakkurni o`stirish.
4. Qadim – qadimdan ardoqlanib kelingan kitobga mehr – muhabbatni tarbiyalash, uni e`zozlashga o`rgatish.
5. O`quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrlarini erkin bayon etishga o`rgatish.

Ko`rinadiki, 1-sinf o`qish darslari o`ziga xos xususiyatlari bilan boshqa sinflardagi o`qish darslaridan hamda boshqa predmet darslaridan maqsadi, vazifalari bilan ajralib turar ekan.

1.2. 1-sinf “O`qish kitobi” darsligining tuzilishi.

Boshlang`ich sinflardagi ona tili ta`limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o`zgalar fikrini anglash, o`z fikrlarini og`zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a`zolari bilan erkin muloqotda bo`la olish ko`nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o`rinda ona tili ta`limiga o`quv fani emas, balki, butun ta`lim tizimini uyushtiruvchi ta`lim jarayoni sifatida qaraladi.

Ona tili ta`limi standarti ko`rsatkichlari bolani fikrlay olish, ifodalangan fikrni anglash va o`z fikrini savodli, mantiqiy izchillikda bayon eta olishga o`rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi.

Boshlang`ich ta`lim bosqichida o`quvchilarning ona tili ta`limi bo`yicha tayyorgarlik darajasiga qo`yiladigan talablar quyidagi uch parametrlilik standart



mezon orqali aks ettiriladi: o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrdagi mujassamlashadi va o'quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametrdagi bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;
- mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va h.k.);
- tavsifning mavzuga muvofiq va mukammal bo'lishi;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalana bilishi;
- imloviy (yozma) savodxon bo'lishi.


1-sinf o'qish darslari atrof-muhit, insoniy munosabatlar, Vatanning o'tmishi va hozirgi kundagi hayoti, unda insonlarning o'rnini haqidagi o'quvchilar bilimlarni kengaytiradi, dunyoqarashlarining shakllanishiga, ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Natijada o'quvchilarda ijobiy – axloqiy sifatlar shakllana boshlaydi, vatanparvarlik, vatanga muhabbat, insonparvarlik hislari rivojlanadi.

1-sinf o'qish darslari 1-sinf "O'qish kitobi" darsligi asosida tashkil qilinadi.

Darslikning sakkaizinchi nashri mualliflari T.G'afforova va X.G'ulomovalar bo'lib, u 2012 yilda Toshkentda "Sharq" nashriyot –matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyatida chop qilingan.

1- sinf "O'qish kitobi" dagi materiallar tevarak-atrofdagi hayot, kishilarning o'zaro munosabatlari respublikamiz kishilari ma'naviy qiyofalari, ularning ona-Vatan hamda borliq haqidagi tushuncha-tasavvurlarini kengaytirish orqali bolalarning bilim va ko'nikmalarini har tomonlama taraqqiy ettirish, saviyalarini kengaytirishni ko'zda tutadi. Shuning uchun ham darslikdagi materiallar mazmuni bolalarga g'oyaviy, siyosiy, axloqiy va estetik tarbiya berish; to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish malakalarini oshirishni ko'zda tutadi. Darslikda berilgan mavzular ma'lum bir mavzu doirasida birlashtirilgan.

1-sinf "O'qish kitobi" kitobi darsligi o'z ishiga 7 bo'limni oladi. Bular: "O'zbekiston – mening Vatanim", "Biz – buyuklar avlodi", "Ko'klam – yashardi



olam”, ”Ilm – aql chirog’i”, ”Xalq o’giti – baxt kaliti”, ”Odob – insonga husn”, ”Mehnatning tagi rohat”. Shuning bilan birga kitobda mustaqil o’qish uchun ham materiallar berilgan. Darslikning har bir bo’limi ma’lum maqsad asosida tuzilgan. (21. 5-6.)

Birinchi bo’lim ”O’zbekiston – mening vatanim” de nomlangan bo’lib, u o’quvchilarni vatan tushunchasi bilan tanishtirib, uning qiyosi yo’qligiga ishonitiradi, uni asrab-avaylashga, u bilan faxrlanishga o’rgatadi. Shuningdek, vatanning o’tmishi va hozirgi kuni haqidagi materiallar ham o’quvchilarda vatanparvarlik, vatanga muhabbat hislarini rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadi.

Ikkinchi bo’lim esa ”Biz – buyuklar avlodi” deb nomlangan. Bu bo’limda o’quvchilar o’zbek xalqining buyuk xalq ekanligini, uning donishmand farzandlarini butun dunyo bilishini o’rganib, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik sifatlari tarbiyalanadi. Bu bo’limda ular millatimiz faxri bo’lgan Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug’bek, Bobur kabi allomalar haqidagi ma’lumotlar bilan tanishadilar. Ularning hayoti haqidagi rivoyatlarni o’rganadilar.


Uchinchi bo’limda o’quvchilar bahor fasli, unda o’tadigan bayramlar, bahorda bajariladigan ishlar haqidagi ma’lumotlar bilan tanishadilar va bu bo’lim ”Ko’klam – yashardi olam” deb atalgan.

To’rtinchi bo’lim ”Ilm – aql chirog’i” deb nomlangan bo’lib, u ilmga, o’qishga, kitobga mehrni tarbiyalash maqsadini ko’zlaydi.

O’quvchilar bu bo’limni o’rganish orqali ilmning inson hayotidagi ahamiyatini bilib oladilar. Bilimli bo’lish uchun ko’proq o’qish, o’rganish lozimligini anglaydilar.

Beshinchi bo’lim ”Xalq o’giti – baxt kaliti” deb nomlanib, xalq ogzaki ijodini o’rganishga bag’ishlangan, bunda 1-sinf o’quvchilarining yoshi, o’zlashtirish xususiyatlariga mos materiallar tanlangan. Asosiy maqsad o’quvchilarda umuminsoniy sifatlarni, milliy qadriyatlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Oltinchi bo’lim- ”Odob – insonga husn”. Bu bo’limda insonning eng go’zal fazilatlaridan biri – odoblilik haqida gap boradi. Bu bo’limni o’rganish



orqali o'quvchilar kundalik hayotidagi insoniy munosabatlarni, undagi axloq normalarini, umuminsoniy sifatlarni bilib, o'zlashtirib oladilar.


Yettinchi bo'lim esa "Mehnatning tagi – rohat" deb ataladi. Bunda o'quvchilar mehnat insonga baxt keltirishini, insonlar hayotida baxtli yashash uchun biror kasbni egallashlari zarurligi haqidagi mavzularni o'rganadilar. Ularda mehnatga hurmat, mehnatsevarlik, kasb egallashga qiziqish hislari tarbiyalanadi.(22)

Har bir bo'lim so'ngida mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar, turli boshqotirma va rebuslar berilganki, bular o'quvchilarda erkin fikrlashni, izlanish qobiliyatini rivojlantirish bilan birga, ularda o'qish motivlarini rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'qituvchi badiiy matn ustida ishlaganda mavjud savol va topshiriqlardan foydalanadi. U matnni avval ifodali qilib o'qib beradi. Keyin matn mazmuni ustida suhbat uyushtiradi. Bunda o'qituvchi savollar va tasviriy vositalardan foydalanadi. O'quvchilarning o'zlariga ovoz chiqarmay o'qish, mazmunini tushunish topshiriladi. Keyin navbatma – navbat o'qitiladi. Lug'at ustida ishlab, yangi so'zlar ma'nosi tushuntiriladi, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga e'tibor qaratiladi. Oxirida savol – javob, test, boshqotirma, rebus yechib o'quvchilar bilimi umumlashtiriladi, reytingi e'lon qilinadi.

Har bir mavzu oxirida topishmoq, maqol, hikmatli so'zlar, tez aytishlar berilgan. Bundan o'qituvchi har bir darsning mazmuniga qarab foydalanishi mumkin.

Har bir bo'lim tugashi bilan takrorlash – umumlashtirish darslari o'tiladi. Shunga erishish lozimki, bu darslar o'quvchilar uchun bayram shaklida, qiziqarli bo'lsin. Chunki bu darsda o'quvchilarning bo'limni o'rganish davomida egallagan bilimlari umumlashtiriladi va sinaladi. Shuning uchun ham bu darslar ertak dars, sahna darsi va boshqa shu kabi qiziqarli noan'anaviy dars tarzida o'tilishi lozim. Bunday darslarni tashkil etish uchun darslikda turli boshqotirma, rebus va testlar berilgan. O'qituvchi darsga ijodiy yondashib uni yanada boyitishi mumkin.



II bob

1-sinf o`qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida loyihalashtirish va ularni tashkil qilish yo`llari.

2.1. 1-sinf o`qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash.

”Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” da ta’lim berishning ilg`or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o`quv-uslubiy majmualarni yaratish va o`quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash umumiy o`rta ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ko`rsatilgan. Shu o`rinda pedagogik texnologiya o`zi nima? Degan savol tug`ilishi tabiiy. Hozirgi kunda pedagogik texnologiyaning ta’riflari juda ko`p.


Pedagogik texnologiyaning YUNESKO tashkiloti ma’qullagan ta’rifi quyidagicha: “Pedagogik texnologiya bu, ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o`zaro ta’sirini inobatga olib, o`qitish va bilim o`zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo`llashning tizimli metodidir”.

Darhaqiqat, ilg`or pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o`quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o`quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o`zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko`nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta’lim jarayonida o`qituvchi faoliyati va o`quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta’limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko`rsatiladi.(19.14-15)

Pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlari, belgilari quyidagilar:

- ta’lim jarayonini oldindan loyihalash va sinfda o`quvchilar bilan qayta ishlab chiqish;
- tizimli yondashuv asosida o`quvchining o`quv-biluv faoliyatini tasvirlaydigan ta’lim jarayoni loyihasini tuzish;
- ta’lim maqsadi real, aniq diagnostik bo`lishi va o`quvchining bilim o`zlashtirish sifatini obyektiv baholash;



- ta'lim jarayonining tuzilishi va mazmuni yaxlitligi, o'zaro bog'liq o'zaro ta'sirda bo'lishi;
- ta'lim shakllarini optimallashtirish, qulaylashtirish;
- ta'lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o'zaro ta'sirini hisobga olish;
- ta'lim maqsadlarini ko'zlangan etalon asosida o'quvchilarning kuzatiladigan, o'lchanadigan harakatlari shaklida juda oydinlashtirish;
- o'quvchining faolligiga tayanib o'qitish;
- bilim o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish;
- shakllantiruvchi va jamlovchi baholar;
- belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini bajarish;
- ta'limning rejalashtirilgan natijasiga erishishning kafolatlanganligi;
- ta'lim samaradorligining yuqoriligi.


Aniqroq qilib aytganda, pedagogik texnologiya deganda, ta'lim funksiyasini amalga oshirishdagi mahorat va san'at tushunilib u juda qulay usullar asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga asoslanadi.

Shuning uchun ham ta'lim ishiga texnologik yondashish hozirgi kundagi muhim vazifadir.

Ta'lim ishiga texnologik yondashuv:

- o'qish-o'qitish jarayonini o'zaro bog'liq etaplar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;
- ta'limdan mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiyada ta'lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo'lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim.



Shuning uchun ham o'qituvchilar maqsadni aniq belgilashga e'tibor qaratishlari zarur. Har bir o'qituvchi avvalo o'zi o'qitadigan o'quv predmeti maqsadini va har bir o'qitadigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak.

Belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Didaktik jarayon uchta bir-biri bilan bog'liq komponentlardan iborat. Bular:


- 1) motivlar.
- 2) o'quvchining o'quv-bilish jarayoni.
- 3) boshqarish.

Didaktik jarayonning samarali o'tishida motivlar muhim o'rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali bo'ladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda motivlarning o'rni beqiyosdir. Chunki maktabgacha yoshda faqat o'yin faoliyati bilan shug'ullangan bolaning 1-sinfidan aqliy faoliyat bilan shug'ullanishi biroz qiyin kechadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchisi didaktik o'yinlar vositasida bolalarning o'qish motivini o'stirishga e'tibor qaratishi lozim. Bu bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va adaptatsiya hosil qilishlariga ham ko'mak beradi.

Birinchi sinfda dars jarayonida motivlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatlarini tashkil etishda ham motivlarga ko'proq e'tibor berishi o'quvchilarning bilim egallash jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Ta'limda faqat qiziqishga tayanib qolish ham motiva tsiyaning asosli samarasi bo'la olmaydi. Bunda eng muhim samarali usul motivatsion — muammoli vaziyatlarni qo'yish yoki o'rganilayotgan predmetning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradigan maxsus bilishga oid vazifalarning qo'yilishidir.

Masalan, yangi dars boshlanishida yoki o'tgan darsni so'rash va mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning darsga qiziqishlari oshiriladi. Motiv hosil bo'lgach, dars davomida o'quvchilarning qiziqishlari saqlanib turgan holda o'rganilayotgan mavzuning ijtimoiy ahamiyatiga



e'tibor qaratiladi. Birinchi sinfda dars jarayonida motivlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etishda ham motivlarga ko'proq e'tibor berishi o'quvchilarning bilim egal lash jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

O'qituvchi dars loyihasini tayyorlar ekan, maqsadni oydinlashtirishi va shu maqsad asosida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini shunday tashkil etishi lozimki, belgilangan maqsad to'liq amalga oshsin. Ta'lim jarayonini boshqarish o'qituvchidan katta mahorat talab etadi. U dars ishlanmasida boshqaruv yollarini belgilab oladi. O'z faoliyati va o'quvchilar faoliyatini tashkil etish yo'llarini, o'quvchilar bilimni nazorat etish yo'llarini aniq ishlab chiqadi. Ta'lim natijasini tekshirib, maqsadni nechog'li amalga oshganini aniqlaydi va keyingi loyihani tuzishda korrektirovkalar kirgizib yo'l qo'yilgan xato- kamchiliklarni bartaraf etadi.

1-sinf o'qish darslarining tuzilishi ta'lim-tarbiyaviy maqsadi, dars tipi va o'rganiladigan materiallarning xususiyati ga ko'ra turli xildir. Shuningdek, dars qurilishida ham qat'iy andoza bo'lmaydi, chunki yagona andoza birinchidan, ijod korlikka yo'l bermaydi, ikkinchidan, o'quvchilarning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Shuning uchun ham biz o'qish darsining taxminiy loyihasini diqqatingizga havola etamiz:


1. Darsning maqsadi:

- a) ta'limiy;
- b) tarbiyaviy;
- c) rivojlantiruvchi.

Maqsadni oydinlashtirish:

Ta'limiy maqsad:

- a) o'quvchilarning to'g'ri va ravon o'qish malakal shakllantirish;
- b) matn mazmuniga ko'ra, o'quvchilarning xususiyat mos tabiat, jamiyat va inson tafakkuri haqidagi bilimlarni hosil qilish;



Tarbiyaviy maqsad:

- a) o'quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirish;
- b) matn mazmuniga ko'ra aqliy, ma'naviy-axloqiy, etuk, jismoniy, mehnat, ekologik, iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

- a) o'quvchilarning o'qish malakalarini rivojlantirish;
- b) tez, ravon, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish;
- d) dunyoqarashlarini, xulq-odob, insoniy munosabatla aqliy, jismoniy va boshqa sifatlarini rivojlantirish.

Darsni tashkil etish, metod va vositalari:

1.Motiv hosil qilish: Buni darsning o'tgan darsni mustahkamlash qismida va yangi darsni o'tishga tayyorgarlik qismida butun dars davomida ham amalga oshiriladi. Motiv hosil qilishda turli didaktik o'yinlar, topshiriqlar, musobaqalar boshqa ish usullaridan foydalaniladi.

2.Matnni o'qishga tayyorgarlik: Yozuvchi haqida ma'lumot beriladi. Matn mazmuni haqida tushuntirilib o'quvch larning matnga qiziqishlari oshiriladi. Ba'zan matn mazmuni haqida gap boshlab, qolganini kitobdan o'qib, o'rganamiz deb, o'qituvchi bolalarning matnga qiziqishini oshiradi. Tarbiyaviy ta'sirini kuchaytiradi.

3.Matnni o'qish va mazmunini so'zlash. Bunda o'qituvchi matnni o'zi o'qib beradi va mazmunini tushuntiradi yoki ishni tashkil etishda o'quvchilar faoliyatidan ham foydalanishi mumkin.

4.Lug'at ustida ishlash. Notanish so'zlarga izoh berilib, o'quvchilarning so'z boyliklari oshiriladi, dunyoqarashlarini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatiladi.

5.O'quvchilar matnni o'qiydilar. Bunda ham motivni rivojlantirish uchun o'quvchilar guruhlashtirilishi mumkin. 2 ta, 3 ta 4 tadan o'quvchilar guruhi matnni navbat bilan o'qiydilar. To'g'ri, ravon va ifodali o'qishga alohida diqqat qaratiladi. Shu talablarga rioya qilgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.



6. Topshiriq bilan o'qish. O'qituvchi o'quvchilarning o'qish malakalarini rivojlantirish, o'qiganini tushunib olishga o'rgatish uchun turli mashq usullaridan foydalanadi. Matn mantiqiy qismlarga bo'linib, har bir qismning mazmunini so'zlash topshirig'i, qismlarga alohida sarlavha topish, reja tuzish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bu o'quvchilarning dunyo- qarashlarining rivojlanishi, mantiqiy fikrlashga o'rganishiga yordam beradi.

7. Topshiriq bilan o'qish. O'qituvchi o'quvchilarning o'qish malakalarini rivojlantirish, o'qiganini tushunib olishga o'rgatish uchun turli mashq usullaridan foydalandi. Matn mantiqiy qismlarga bo'linib, har bir qismning mazmunini so'zlash topshirig'i, qismlarga alohida sarlavha topish, reja tuzish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bu o'quvchilarning dunyoqarashlarining rivojlanishi, mantiqiy fikrlashga o'rganishiga yordam beradi.

8. Quvnoq daqiqa.

9. Matn mazmuni ustida ishlash. O'quvchilar matn mazmunini so'zlab berishlari yoki turli didaktik o'yinlar vositasida mazmunni o'zlashtirishi mumkin.

Masalan, «Davom ettir o'yini»: O'qituvchi matn mazmunini hikoya qilishni boshlaydi, bir o'quvchi uni davom ettiradi, boshqa o'quvchi uning hikoyasini davom ettiradi. Shu taxlitda barcha o'quvchilarni matn hikoyasiga qatnashtirish mumkin.

«Zanjir» o'yini: matndagi bir necha so'zlar vositasida bu o'yinni o'ynash mumkin. O'qituvchi boshlab bir so'z aytadi, so'zning tugagan harfidan boshlanadigan so'zni o'quvchi aytadi, boshqa o'quvchi yana uning tugagan harfidan boshlanadigan so'zni aytadi, shu taxlitda hamma o'quvchilarni o'yinga qatnashtirish mumkin.

«Tez javob»: O'qituvchi yoki boshlovchi o'quvchilar qator oralab yurib, o'quvchilardan birini turg'izadi va biror tur nomini aytadi. O'quvchi shu turga kiruvchi so'z topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytilishi kerak. Javob berolmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. O'yin toki bir o'quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bunday o'yin davomida o'quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil



fikrlash malakasi rivoj lanib, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o'rganadigan, atrofda sodir bo'ladigan voqea va hodisalarga qiziqishi ortadi.

Bu o'yindan dars davomida o'tilgan mavzuga bog'lab, darsning mustahkamlash qismida yoki dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.

1-variant: O'qituvchi: «Hayvon».

O'quvchi: «It»

O'qituvchi: «Multfilm».

O'quvchi: «Qiroli sher».

2-variant: O'qituvchi: «O'quv quroli».

O'quvchi: «Daftar»

O'qituvchi: «Qizlar ismi».

O'quvchi: «Noila».

3-variant: O'qituvchi: «Sinf jihozi».

O'quvchi: «Xattaxta»

O'qituvchi: «Ertaklar».

O'quvchi: «Zumrad va Qimmat»

Shu kabi o'yinlardan foydalanish orqali o'qituvchi o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantiradi va ularning dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilarda topqirlik, chaqqonlik, bilimdonlik kabi sifatlarni rivojlantiradi, xulqiga ta'sir ko'rsatadi.

10. O'quvchilar bilimni nazorat qilish. Nazoratni yuqoridagi didaktik o'yinlar vositasida va testlardan foydalanib o'tkazish mumkin.

Agar tekshirish davomida dars maqsadiga erishilgan bo'lsa, demak dars texnologiyasi to'g'ri ishlangan va uni takomil- lashtirish mumkin. Agar maqsadga erishilganlik darajasi past bo'lsa, demak loyihani korrekcirovka (o'zgartirishlar kiritish) qilish kerak. O'qituvchi qayerda xato qilganini bilib, xatolarini tuzatadi.

Bu dars yangi bilim berish darsining loyihasi bo'lib, uni boshqacha tarzda ham tashkil qilish mumkin.



Mustahkamlash-umumlashtirish darslarining maqsadi esa o'quvchilarning bo'lim yuzasidan o'rgangan bilimlarini mustahkamlash, umumlashtirishga xizmat qiladi, bundan tashqari o'quvchilar bilimini nazorat qilishga ham xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun ham bunday darslar loyihasini qiziqarli yoki noan'anaviy tarzda ishlashga e'tibor qaratilsa ancha samarali bo'ladi.

2.2. 1-sinf o`qish darslarini tashkil qilish va o`tkazish yo`llari.


Yosh avlodni har tomonlama rivojlangan inson qilib tarbiyalashda 1-sinf o`qish darslari katta ahamiyat kasb etadi. 1-sinf o`qish darslari boshlang`ich sinflardagi boshqa darslardan o`z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko`ra farqlanadi. 1-sinf o`quvchisi matnni to`g`ri, tez, tushunib o`qish, mazmunini o`zlashtirish bilan ilk bor o`qish darslarida tanishadi. 1-sinf o`qish darslari orqali o`quvchilarning Davlat ta`lim standartlari (DTS) talablari bo`yicha o`zlashtirishlari ko`zda tutilgan o`quv-biluv ko`nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo`l ochiladi.

1-sinf o`qish darslari savod o`rgatish davrida o`quvchilarni bo`g`in, so`z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o`qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o`qish texnikasi egallangandan so`ng o`qish muayyan mavzular bo`yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang`ich ta`lim bo`yicha DTS va «Ona tili» o`quv dasturida o`qish ta`limi oldiga qo`yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o`qishni to`g`ri tashkil qilish, o`qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg`or pedagogik texnologiyalardan o`rinli foydalanishga ko`p jihatdan bog`liqdir.

Ma'lumki, sinfda o`qish asosida badiiy va ilmiy-ommabop matnlar turadi. O`quvchilarni matn bilan tanishtirish o`qishga tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi. (15.5)

Tayyorgarlik bosqichi yozuvchilar haqida ma'lumot berish, o`quvchilarni asarda tasvirlanadigan voqea-hodisalarni idrok qilish, asar pafosini his etish, notanish va ko`p ma'noli so`zlar, murakkabroq tarzdagi obrazli ifodalarni izohlash



kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Agar asar yil fasllari haqida bo'lsa, tabiiy qo'yniga sayohat uyushtirish ham sinfda o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.(22.5)

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy - estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi. (10.6.)

Shunga ko'ra o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

O'qish ta'limi bo'yicha o'quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo'lmaydi. Negaki matn tagzaminidagi tarbiyaviy g'oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda , har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab yetilganda o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi. ()

Asar tahlili jarayonida o'qituvchi savollariga o'quvchilarning o'z so'zlari bilan javob berishi ham matnda tasvirlangan voqea - hodisalar yuzasidan mantiqiy fikrlashga, qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri baholashga yaqindan yordam beradi. () Savollar uzuq-yuluq va mantiqsiz bo'lmasdan, qat'iy maqsad asosida izchil berilishi o'quvchilarning o'qilgan matn mohiyatini chuqur anglab yetishlariga imkon yaratadi. Negaki har qanday javob mustaqillikni taqozo etadi.



Ta'kidlash joizki, o'quvchilarning o'zlarini ham savol tuzishga o'rgatish lozim. K. D. Ushinskiy qayd etganidek, to'g'ri qo'yilgan masalaning o'zi yarim javobdir. Matn yuzasidan savol tuzishda o'quvchining dars mavzusi bilan bog'liq jihatlariga e'tibor berishi asarda tasvirlangan voqea-hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarni bilib olishga, hayotiy xulosalar chiqarishga yo'l ochadi. Shuning uchun ham matn yuzasidan savol tuzish o'quvchini ongli va tushunib o'qishga yo'llaydi. Uning o'ziga xos xususiyatini o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish orqali dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularini uyg'otishdir.

Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Ular o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

«O'qish kitobi» darsliklaridagi materiallar sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan.

1-sinfda o'rgatiladigan «Ajdodlarimiz-faxrimiz», «Ilm-aql chirog'i», «Zumrad bahor», «Kumush qish» kabi mavzular 2-4 sinflarda ham davom ettiriladi. Natijada o'quvchilarning oldingi bilimlari to'ldiriladi va boyitiladi.

Darslikdagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir.




Bu xildagi asarlar o`quvchilarni faqat o`tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas`uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg`usi shu tariqa shakllanadi.

Vatanimiz o`tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o`quvchilar o`tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo`ladilar. Jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo`lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada ayniqsa Vatan mavzusi bilan bog`liq Po`lat Mo`mining “Vatan-bu”, Q.Rahimboyevaning “Buyuklar Vatani”, Xurshid Davronning “Yagonadir Vataning sening” mavzusidagi asarlari yaqindan yordam beradi.


1-sinf o`quvchilarni rivoyatlarni juda sevib o`qiydilar. Darslikdagi “Non isi” rivoyati buyuk bobokalonimiz A.Navoiy haqidadir. Bu mavzu bilan tanishish darsini quyidagicha tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Non isi. (Rivoyat)
Mavzuga doir tayanch tushunchalar: Husayn Boyqaro, eng xushbo`y narsa, vazirlar, Alisher Navoiy, non, non isi, saroy. Soatlar soni: 1soat.
Mavzuning qisqacha ta`rifi:</b> Husayn Boyqaro saroydagilarga eng xushbo`y narsani keltirishni buyuribdi. Ular keltirgan narsalar Sultonga yoqmabdi. Oxiri ular Alisher Navoiyga murojaat qilishibdi. Alisher Navoiy bir savat non bilan saroyga yetib boribdi. Husayn xursand bo`libdi, chunki uning ko`ngli yangi yopilgan non isini istayotgan edi.
O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:
Metod: Suhbat, ifodali o`qish, test, tushuntirish, munozara. <b>Shakl:</b> Jamoa, guruh bilan ishlash. <b>Jihoz:</b> Turli xildagi nonlar rasmi, A. Navoiy surati. <b>Nazorat:</b> O`quvchilarning darsda faolligini kuzatib, hisobga olib boriladi. Baholash: O`quvchilarning reytingi dars oxirida e`lon qilinadi.



Darsning maqsad va vazifalari			
Ta'limiy: Ravon va qiroat bilan o`qish ko`nikmasini rivojlantirish, buyuk ajdodlarimiz hayotiga doir ma'lumotlar bilan tanishish, nonning aziz ne'mat ekanligini tushuntirish. Tarbiyaviy: Tabiat va uning ne'matlarini asrab-avaylashga o`rgatish.</p> <p><b>Rivojlantiruvchi:</b> O`quvchilarning to`g`ri, ifodali o`qish malakalarini rivojlantirish. Vatanimizda yashab o`tgan allomlar hayotiga doir ma'lumotlarni o`rgatish orqali Vatanga va uning tarixiga qiziqish hissini tarbiyalash.			
Kutilayotgan natija			
Dars yakunida o`quvchilar matnni to`g`ri va ifodali o`qish malakasiga ega bo`ladilar. Ulug` bobomiz Alisher Navoiy hayoti haqidagi va uning do`sti Husayn Boyqaro haqidagi yangi ma'lumotlarni o`zlashtiradilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1- bosqich Tashkiliy qism	O`quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	Suhbat	2 daqiqa
2-bosqich (Refleksiya) ehtiyoblarni aniqlash	Dars davomida rioya qilish lozim bo`lgan qoidalar belgilanadi, dars shiori ishlab chiqiladi.	Munozara	2 daqiqa
3-bosqich Darsning borishi	1. Alisherning yoshligi haqidagi matnni hikoya qildirish.	Savol-javob	6 daqiqa
	2. Savol- javob asosida o`tgan dars haqidagi bilimlarni tekshirish.	Suhbat	5 daqiqa
	3. Matnni o`qishga tayyorgarlik.	Ifodali o`qish	2 daqiqa
	4. O`quvchi matnni o`qib beradi va hikoya qiladi.	Ifodali o`qish	5 daqiqa
			6 daqiqa



	5. Lug`at ishi. Qiyin so`zlarga izoh beriladi. 6. Matnni o`quvchilarga o`qitish. 7. Maqolni o`qitish va mazmuni ustida ishlash.	Didaktik O`yin	2 daqiqa 5 daqiqa
4- bosqich Mustahkamlash	1. Mavzuni mustahkamlashda testlardan foydalanish. 2. Darslikdagi savollardan foydalanib dars umumlashtiriladi	Test Suhbat	3 daqiqa 4 daqiqa
5- bosqich Baholash, darsni yakunlash.	O`quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e`lon qilinadi.		2 daqiqa
6- bosqich	Uyga matnni o`qib, o`rganib kelish topshirig`i beriladi.	Tushuntirish	1 daqiqa


Darsning borishi:

1. Alisherning yoshligi haqidagi matnni hikoya qildirish.
2. O`qituvchi o`quvchilarga o`tgan mavzu yuzasidan savollar beradi.
 - Alisherning do`sti katta bo`lganda kim bo`lmoqchi edi?
 - Alisher do`stiga qanday maslahat berdi?
 - Siz nima deysiz? Kimning gapi to`g`ri?
3. O`tigan mavzu xulosalanadi.
4. Matnni o`qishga tayyorgarlik.

Nonning qanday turlarini bilasiz? (Obi non, patir, shirmoy non, jizzali non...)

Nonning hidi qanaqa bo`ladi?

5. O`qituvchi matnni o`qib beradi va hikoya qiladi.
6. Lug`at ishi.



Husayn Boyqaro – A. Navoiyning bolalikdan birga o`sgan do`sti.

Keyinchalik u shoh bo`lganda A. Navoiy unga vazirlik qilgan.

Xushbo`y – yoqimli hid.

7. Matnni o`quvchilarga o`qitish. Matn 5 qismga bo`lib, 5 nafar o`quvchiga o`qitiladi. Mazmunini so`zlash aytiladi.

8. Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida savol-javob o`tkaziladi.

1) Husayn Boyqaro nima keltirishni buyurdi?

2) Unga nima keltirishdi?

3) Vazirlar kimga murojaat qilishdi?

4) A. Navoiy saroyga nima keltirdi?

9. O`qituvchi bolalar bilan nima uchun nonning hidi eng xushbo`y bo`lishi haqida suhbat uyushtiradi. U nonning juda ko`p insonlar mehnati hosilasi ekanligini, bug`doyning ekilishidan boshlanadigan dehqon mehnati haqida, bug`doyni un qilish va undan non tayyorlashgacha bo`lgan mashaqqatli mehnat haqida so`zlab beradi.

10. Testlar:

Eng xushbo`y va aziz ne`mat nima?

A. Qalampirmunchoq

B. Non

11. O`quvchilarga non haqidagi she`r, ashula va maqollar aytiriladi.


(Nonni qilmagin uvol, nonning uvog`i ham non)

12. O`quvchilar baholanadi. Faol ishtirok etganlar rag`batlantiriladi.

13. Uyga vazifa: Matnni o`qib, qayta hikoya qilishni o`rganib kelish.


1-sinfda badiiy asarlar matni ustida ishlash jarayonida ularning janriy xususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutiladi. Masalan, tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag`riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o`rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

1-sinfda «Odob» rivoyati ham quyidagi tartibda o`tkaziladi.



Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Odob (<i>Rivoyat</i>)			
Mavzuga doir tayanch tushunchalar: Luqmoni Hakim, odob, diqqat. Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha ta’rifi: Luqmoni Hakimdan soʻradilar: "Odobni kimdan oʻrgandingiz?" Javob beribdilar: "Odobni odobsizdan oʻrgandim" va qanday oʻrganganliklarini aytibdilar.			
Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Metod: Suhbat, hikoya, didaktik oʻyin, ifodali oʻqish, tushuntirish, musobaqa, munozara. Shakl: Jamoa, guruh bilan ishlash. Jihoz: Mavzuga oid rasmlar Nazorat: Oʻquvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. Baholash: Oʻquvchilar reytingi dars oxirida eʼlon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar: Taʼlimiy: Oʻquvchilarning toʻgʻri, ravon, ifodali oʻqish malakalarini takomillashtirish. Oʻquvchilarni buyuk ajdodlarimiz merosi bilan tanishtirish. Tarbiyaviy: Oʻquvchilarni axloq-odobli qilib tarbiyalash. Rivojlantiruvchi: Oʻquvchilarning toʻgʻri, ravon, ifodali oʻqish malakalarini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
Dars yakunida oʻquvchilarning toʻgʻri, ifodali va tez oʻqish malakalari takomillashadi, odobli boʻlishning ahamiyati, odobni oʻrganish yoʻllarini bilib oladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich	Oʻquvchilar davomati aniqlanadi.	Suhbat	2 daqiqa
Tashkiliy	Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.		




qism			
2-bosqich (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Dars davomida rioya qilish lozim boʻlgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi.	Munozara	2 daqiqa
3-bosqich Darsning borishi	1. Odoblilik va odobsizlik belgilari asosida qarama-qarshi juftlik soʻzlarni topish oʻyini oʻtkaziladi. 2. Yangi mavzuni oʻtishga tayyorgarlik. 3. Oʻqituvchi matnni ifodali oʻqiydi. Matn mazmunini soʻzlab beradi. 4. Matnni oʻquvchilar oʻqiydilar. 5. Topishmoq aytish musobaqasi.	Didaktik oʻyin Suhbat, musobaqa Suhbat Ifodali oʻqish	8 daqiqa 4 daqiqa 7 daqiqa 7 daqiqa 7daqiqa
4-bosqich mustahkamlash	Oʻrganilganlar takrorlanib dars mustahkamlanadi.	Suhbat	3 daqiqa
5-bosqich baholash Darsni yakunlash	Oʻquvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi eʼlon qilinadi va dars yakunlanadi.		2 daqiqa
6-bosqich	Latifalar oʻrganib kelish topshirigʻi beriladi.	Tushuntirish	1 daqiqa

Darsning borishi

1. Odoblilik va odobsizlik asosida qarama-qarshi juftlik soʻzlarni topish oʻyini oʻtkaziladi.

Odoblilik

Odobsizlik



Salom berish

Salomlashmaslik

Shirin soʻzlik

Qoʻpol soʻzlik

Erta turish

Kech turish

Ota-onaga itoat qilish

Ota-onani mensimaslik

Oʻrtoqlari bilan yaxshi
muomalada boʻlish

Yomon muomalada boʻlish va hokazolar.

2. Yangi mavzuni oʻtishga tayyorgarlik. Yuqoridagi oʻyin ham yangi darsni oʻtishga tayyorgarlikning dastlabki qismi. Oʻqituvchi oʻquvchilarning odoblilik va odobsizlik belgilari haqidagi tasavvurlarini oʻrganib, xulosalab, bugungi dars ham shu mavzuga qaratilganini aytadi.

3. Matnni oʻqish. Oʻqituvchi matnni ifodali qilib oʻqiydi. Matn mazmunini soʻzlab beradi. Luqmoni Hakim toʻgʻrisida maʼlumot beradi. Luqmoni Hakim bizdan ancha uzoq zamonda yashagan va odamlarni davolash bilan shugʻullangan inson. U kishi nafaqat davolash bilan balki oʻzining ibratli hikoyalari bilan ham odamlarni tarbiyalagan. Shuning uchun ham u kishiga „Odobni qayerdan oʻrgandingiz?“, - deyishganda, „Odobsizdan“, deb javob qilganlar.


4. Matnni oʻquvchilar oʻqiydilar. Avval ichida oʻqish, keyin joʻr boʻlib oʻqish aytiladi. Matn qismlarga boʻlib, oʻquvchilarga navbat bilan oʻqitiladi.

5. Oʻquvchilar bilgan topishmoqlarni aytish va uning javobini izlash, bolalarning darsga qiziqishini oshiradi.

6. Darsning yangi mavzuni mustahkamlash qismida oʻqituvchi „Odobli bola qanday boʻladi? Odobsiz bola-chi?“ deb murojaat qiladi va muammoli vaziyat yaratadi. Barcha oʻquvchilar birgalikda bu muammoni hal qiladilar.

7. Dars umumlashtiriladi va oʻquvchilar reytingi eʼlon qilinadi. Uyga vazifa qilib odoblilik sifatlarini oʻrganish topshiriladi.

Hozirgi taʼlim jarayonida modulli texnologiyalardan ham unumli foydalanilmoqda. Modul oʻqitish fanning asosiy masalalari boʻyicha umumlashtirilgan axborotlar beruvchi muammoli va yoʻriqli darslar oʻtilishini taqozo etadi. Darslar oʻquvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmogʻi lozim.



Modulli ta'lim o'qitish texnologiyasining eng asosiy negizi- bu o'qituvchi o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiya tushuniladi. O'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishida qo'llaniladigan har bir modul o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa chiqara olsalar, o'zlariga , guruhga, guruh ularga baho bera olsa, o'qituvchi ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzuning o'ziga xos modulli texnologiyasi bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan , oldindan loyihalshtirilgan va kafolatlangan natija, berishishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'rgatishda modulli texnologiyalardan ham foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, 1-sinf o'qish darslarida bir qator ertaklar o'qib-o'rganiladi. Binobarin, o'qish darslariga qo'yilgan zamonaviy talablar o'qituvchidan boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga jalb qilish, badiiy adabiyoni san'atning bir turi sifatida qarashga, asarlarning badiiy mazmunini, estetik ahamiyatini va obrazlar mazmunini tushunishiga e'tibor qaratish talab etiladi. Quyida 1- sinfda "Rostgo'y bola" ertagini o'rgatishning aniq modullar asosida tayyorlangan dars ishlanmasini keltiramiz.

Mavzu: O'zbek xalq ertagi "Rostgo'y bola".


Maqsad: To'g'ri, tez va ifodali o'qish malakalarini takomillashtirish.

Matn ustida ishlash, tahlil qilish ko'nikmasini mustahkamlash, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish.

O'quvchilar shaxsida to'g'riso'zlik, rostgo'ylik kabi ijobiy sifatlarni tarbiyalash.

Darsning borishi:

Darsning shiori: Biz nimaiki qilmaylik,
 Barchasi zarur, kerak.
 Bilim egallash uchun



Tinimsiz o'qish kerak.

1 modul.

Uy vazifasini tekshirish.

“Maymun va duradgor” haqidagi ertak. Xattaxta oldiga ikki o'quvchi chaqiriladi va ular galma galdan ertakni o'qib, mazmunini so'zlaydilar. Duradgor kim? U nima ish qiladi? Degan savol beriladi va o'quvchilarning javoblari to'ldiriladi.

2 modul

Quvnoq daqiqa.

O'qituvchi: Yaxshi o'qish uchun, yaxshi nafas olish kerak.

1) Nafas olishga oid mashqlar:

- “Choyni sovit”.
- “Gulni hidla”.
- “Sharni shishir”.
- “Changni hayda”.

2) Ovoz mashqi: tovush mashqi: a,o,u,e,i,o'.

- Quyidagi she'rni eshitib bugun qanday mavzu bilan tanishishimizni bilib olarsiz. Yaxshilab e'tibor qiling:

To'g'riso'z bola. H.H. Niyoziy.

(Qisqartirilgani)

Kelmog'ida maktabidan bir o'g'il,

To'xta debon ikki kishi to'sdi yo'l.

Dedi:” Tanga berurman sanga

So'zla bir og'izgina yolg'on manga”.

Berdi o'g'il fikr ila shirin javob:

“ So'zlang ako, qomatingizga qarab.

Bu so'zingiz aslida yolg'on erur

Tangaga yolg'onni kim olg'on erur”.

Quyidagi skanerga qarab bugungi o'rganadigan mavzumiz nomini va unga doir so'zlarni toping.

b	r	o	s	t	g	o	y	b	r
o	o	b	o	l	a	y	o	o	o
					a	,			
l	s	y	l	g	o	h	r	l	s
		o		,					
a	t	a	n	g	a	k	k	a	t
r	g	k	i	s	i	a	k	o	g
			h						
o	o	m	a	k	t	a	b	y	o
,							u	,	
s	y	s	o	z	i	n	i	z	y
			,		g				
t	o	g	i	z	g	i	n	a	a
		,							
g	l	a	r	o	s	t	g	o	y
							,		
o	y	s	a	n	g	a	k	i	n
,									

- rostgo'y (5 ta), bola (3 ta), yolg'on, tanga, kishi, ako, maktab, so'zingiz, og'izgina, sanga, kim.

3 modul.

Skanerdagi so'zlarni qatnashtirib gaplar tuzing: Bir og'izgina yolg'on, rostgo'y bola, yolg'onchi kishi sanga tanga berurman, dedi va b. –Kim shu so'zlar vositasida ertak tuzib beradi. Bolalar o'zlaricha tuzgan ertaklarini so'zlab beradilar.

Bugungi o'tadigan ertagimiz nomini topdingizmi? Bolalar aytadilar (Yoki o'qituvchi ertak nomini o'zi aytadi: "Rostgo'y bola"). Kelinglar endi ertakni eshitib ko'ramiz. Unda ba'zi notanish so'zlarga duch kelasizlar. Ularning



mazmunini sizlarga tushuntiraman: (xattaxtaga oldindan yozib qo'yilgan bo'lsa ham mumkin)

Podshoh - yurtning boshqaruvchi kishi.

Vazir - podshohning yordamchisi.

Tadbir - o'ylab qilingan ish.

Xomush - xafa.

4 modul

Ertakni o'qituvchi tomonidan o'qish, ma'lum bir qismini o'quvchilar davom ettirishi mumkin.

-Siz yolg'on gapirgan bolalarni hayotda uchratganmisiz?

(O'quvchilar javoblari eshitiladi). Rost gapirishning ahamiyatini bilasizmi? O'qituvchi rost gapirishning ahamiyati haqida o'quvchilarning yoshiga mos tushuncha beradi va xalq maqollaridan aytadi (Masalan, "Boshingiz qilich kelsa ham rost gapir" ...qolganini o'quvchilar davom ettiradilar).


5 modul

Mustaqil o'qish.

Usul: o'qituvchi o'quvchilar bilan birga ovoz chiqarib o'qiy boshlaydi (o'quvchilar faqat ko'z bilan o'qiydilar), o'qituvchi jim bo'lib, o'qishni ichida davom ettiradi, o'quvchilar esa ovoz chiqarib o'qiydilar, keyin yana o'qituvchi ovoz chiqarib o'qiydi, o'quvchilar ko'z bilan o'qiydilar va shunday o'qish ertak oxirigacha davom etadi.

O'qish oldidan topshiriq: xattaxtaga yozilgan so'zlarni ertakda berilganday izchillikda, so'zlar qo'shib yozing:

- * qadimda,
- * podshoh bo'lgan,
- * xomush bo'lib yurgan,
- * vazirning maslahati,
- * gul urug'i,
- * farzand qilib olmoqchi,
- * vaqt o'tibdi,



- * shahar aylanibdi,
- * gullarni ko'rib o'taveribdi,
- * ko'zi tushibdi,
- * gullar qani,
- * qaynattirgan.

6 modul

Matnni tahlil qilish uchun savollar:

- Ertak qahramonlari kimlar?
- Quyidagi so'zlar kim haqida yozilgan: xomush, farzandi yo'q, gul urug'i tarqattiribdi (podshoh).
- Yaxshi farzand topish yo'lini ertak qahramonlaridan kim maslahat beribdi? (vazir)
- Qanday yo'l bilan rostgo'y, aqlli bola tanlandi?
- Keyin nima bo'ldi?
- Podshoh gul urug'ini nima qilgan ekan?
- Quyidagi hikmatli so'zlardan qaysi biri ertak mazmunini to'ldiradi?
- 1. Boshingga qilich kelsa ham, rost gapir.
- 2. Yolg'onning umri qisqa.
- 3. Boshingga nima kelsa, tilingdan kelur.
- 4. To'g'rilik baxt keltirar.
- (To'g'ri gapirgani uchun bola podshohga farzand bo'ldi).


Markazlarda ishlash.

Sinf jamoasi 5-7 kishidan tahlilchilar, o'quvchilar, tilshunoslar, tadqiqotchilar (boshqalar ham bo'lishi mumkin) kabi guruhlariga bo'linib markazlarda ishlaydilar.

O'qish markazi: "Kitoblar olami".

1 guruh-o'quvchilar.

Topshiriq: Ertakdagi ko'rsatilgan qismni o'qib, uni tiklash (Ertak kserokopiya qilinib, 7 qismga bo'linadi. Har bir qismi kamalakning bir rangiga



mos keladigan rangdagi qog'ozlarga yopishtiriladi. O'quvchilar bo'lingan matn tiklab, to'liq javobni va kamalak rangini hosil qiladilar).

2 guruh-tahlilchilar.

Topshiriq: Ijodiy daftarda ishlash (matnga savollar qo'yish)

Yozuv markazi: "ijodiy ish".

Har bir o'quvchining aftarida qahramonlar xislatlariga tegishli so'zlar yozilgan: farzandi yo'q, xomush, ko'p bolalarni ko'rdi, gulsiz tuvak ushlab o'tirgan bolakay.

Topshiriq: Qahramonlarga taalluqli xislatlarni o'qib, kimga tegishligini ayting. Ertak qahramonlaridan kimga tegishli gap yo'qligini aniqlang (vazirga tegishli gap yo'q). O'zingiz tanlang.

Ilmiy-tadqiqot markazi.

Topshiriq: Ertakdagi qahramonlarga doir sifatlarni yozish va ularga taalluqli sifatlarni qahramon nomi bilan birga yozing.

Natijada quyidagi jadval hosil bo'ladi:

Xomush podshoh.

Aqlli vazir.

Rostgo'y bola.

Yolg'onchi bolalar.

Taqdimot:

Har bir markazdan bir bola chiqib, o'z ishlarining yakuni haqida so'zlaydilar.

O'qituvchi: Qarang xattaxtamizda


Hosil bo'ldi kamalak.

Quvonchimiz cheksizdir

Yorgin birning kelajak!

Uyga vazifa.

Har bir guruhga tegishli vazifalar alohida-alohida aytiladi. (bular ijodiy daftarda ishlash, diafilmlar tuzish, matndan bosh g'oyalarni ajratib yozish, ertakdan olgan taassurotlari asosida rasm chizish va h.)



Darsni xulosalash.

-Bu darsdan qanday yangilik o'rgandingiz? Sizga nima yoqdi? Nima sizga yoqmadi? Siz qanday bo'lishini xohlar edingiz?

Ushbu darsni aniq modul asosida tashkil qilish o'quvchilarning faolligini oshiradi va darsning qiziqarli va jonli tarzda o'tishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Modul dasturi aniq maqsad sari yo'nalganligi, har bir topshiriq uchun qat'iy vaqt belgilanishi, umuman, darsning oldindan rejalashtirilishi o'qituvchilarda katta qiziqish uyg'otayotir.


Modulli ta'limning asosiy mohiyati, o'quvchilar modul dasturlari ustida mustaqil ishlab, ilm olishda belgilangan maqsadga erishadilar.

Modul dasturlari ta'lim tasbiyaviy mavzuning maqsadini dars davomida mustaqil bajaradigan topshiriqlar asosida aks ettirgan ko'rsatmalr majmuidir.

Modul dasturlari – dars matni yoki o'qituvchilar tomonidan o'quv materialini rejalashtirish emas, balki o'quvchilarning mazkur mavzuni mustaqil va ijodiy o'rganishi bo'yicha o'quv faoliyati dasturidir. Modul dasturlari o'qituvchilar tomonidan tuzilib, unda modulning umumiy didaktik maqsadi, mavzuni o'rganish bosqichlari, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv faoliyati elementlari, ularning bilimini nazorat qilish yo'llari ketma-ket bayon etiladi.

O'qituvchi modul dasturlarini tuzishda va undan ta'lim jarayonida foydalanishda quyidagilarga e'tibor berishi zarur:

1. O'quv materialini tanlash. O'quvchilarga mustaqil o'zlashtirish uchun tavsiya etiladigan o'quv materiali qisman tanish va ular uddalay oladigan bo'lishi kerak.
2. Vaqtni tejash. O'quvchilar o'quv materialini dasturda belgilangan vaqt doirasida egallab olishlariga erishish zarur.
3. O'quvchilarda mustaqil va ijodiy ishlash ko'nikmalarini hosil qilish. O'qituvchi o'quvchilarni modul dasturlari bilan ishlashga yo'llashdan avval ularda darslik va boshqa manbalar ustida mustaqil ishlash ko'nikmasi shakllanganligiga ishonch hosil qilishi kerak.



Yuqoridagilardan ko`rinadiki, 1-sinf o`qish darslarini turlicha metod bilan tashkil qilish va o`tkazish mumkin. Bu qo`llangan metodlarning barchasi pirovard natijadi bir maqsadga- o`quvchilarni ma'anaviy barkamol inson etib tarbiyalashga qaratilmog`i juda muhimdir.


2.3. 1-sinfda o`qishdan umumlashtiruvchi darslarni tashkil qilish va o`tkazish yo`llari

1-sinfda o`qishdan o`tkaziladigan umumlashtiruvchi dars o`quvchilar bilimini bir tizimga solish, o`rganilganlarni takrorlab umumlashtirish maqsadiga xizmat qiladi. Umumlashtiruvchi dars odatda o`qish dasturidagi u yoki bu muhim mavzu yuzasidan utkaziladi. Umumlashtiruvchi dars darslikning butun bir bo`limini yakunlashga xizmat qilishi xam mumkin.

1- sinfda o`tkaziladigan umumlashtiruvchi dars bolalar tasavvuri va tushunchalarni kengaytirishga yordam beradi; bunday darslarda o`quvchilar egallagan bilimlarning sinf va maktab jamoasi xayotida, har bir o`quvchi xayotida kandy axamiyatga ega ekanini tushunadilar. Bu darsda o`qituvchi bolalar bilimini boyitadigan shu mavzu oid kushimcha materiallar xam berishi mumkin.

1-sinfda umumlashtiruvchi darsda takrorlash ilgari ukilganlar mazmunini o`quvchilar yodida kayta tiklash emas, balki umumlashtiruvchi xarakterda bo`lishi, bolalar bilimini sistemalashtirishga, ayrim tasavvur va tushunchalarni tartibga solishga yordam berish lozim. Shunday ekan, bunday darslar uchun kitobdan ukiganlargina emas, balki bolalarning kuzatishlari natijasida bevosita idroklangan tabiatdagi predmetlar va xodisalar, ijtimoiy xayot vokealari, shaxsiy tajribalari xam material buladi. Maktab xayoti, oila mavzusi yoki tabiatshunoslikka oid mavzuga bagishlangan umumlashtiruvchi darsning vazifasi kitob materialini o`quvchilarning kuzatishlari, ekskursiyalar jarayonida olgan bilimlari bilan bog`liq xisoblanadi.

Umumlashtiruvchi darslarda ish turlari xilma - xil bulib, koerilgan va kechirilganlar yuzasidan, illyustrativ materiallarni (rasmlar, misollar) kursatish va taxlil qilish, o`quvchilarning ayrim asarlardan parchalar o`qish, ekskursiya va kuzatishlar hakida bolalarning ogzaki hikoyani kabilardan foydalaniladi.




Umumlashtiruvchi dars uchun ish turi darsning anik maqsadidan kelib chikib tanlanadi. Umumlashtiruvchi darslarga asosan quyidagi pedagogik talablar kuyiladi:

- o`quvchilar muayyan mavzu ustida ishlab, o`qiganlari, ko`rganlari, eshitganlari, kuzatganlari haqida uz fikr - muloxazalarini dadil va erkin aytish imkoniyatiga ega bulsinlar. Masalan, ma`lum bir mavzuni yakunlab utkazilgan umumlashtiruvchi darsda bolalar kitobdan shu mavzuga oid o`qigan hikoya va maqollardan qaysi biri qiziqarliroq ekanini, shuningdek, u yoki bu hikoya yoki maqolda katnashuvchi shaxslar, ularning xulk - atvorlari haqida uz fikrlarini aytadilar, ayrim zaruriy hollarda o`qqilgan asar mazmunini qisqa bayon qiladilar. Agar mavzuni urganish jarayonida o`quvchilar bilan ekskursiya o`tkazilgan bo`lsa, ular ekskursiyada ko`rganlaridan nimalar qiziqarli bulganini, kaysilari kuchli taassurot qoldirganini aytib berishlariga o`qituvchi yordam beradi. Bular o`quvchilar tafakkurini faollashtiradi, ularni faol fikrlashga urgatadi, ustiruvchi ta`limning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

1- sinfda umumlashtiruvchi darslar «Æšish kitobi» darsligida berilgan 7 ta boelim yuzasidan Ætkazilishi hamda Æšuv yili oxirida barcha Ærganilganlar yuzasidan Ætkazilishi mašsadga muvofišdir. Masalan, “Xalq o`giti- baxt kaliti” bo`limi materiallari o`rganilgach bo`lim yuzasidan umumlashtiruvchi dars tashkil qilinadi. Bunda bo`limdagi “She`r va sichqon”, “Maymun bilan duradgor”, “Rostgo`y bola; ertaklari, maqollar va topishmoqlar, latifalar va “Laylak keldi-yoz bo`ldi” qo`shig`i o`rganilgach bu dars tashkil qilinadi.

Bunda o`quvchilarning shaxsiy tajribasi, oila va maktab, shahar xayoti haqidagi bilimlari katta axamiyatga ega. Bunday darslarda umumiy xulosani o`qituvchining yordamisiz o`quvchilarning uzlari mustaqil ravishda chikarishlari juda muhim bulib, bu ularning kelgusi ishonchlarini shakllantirish uchun ularning kelgusi ishonchlarini shakllantirish uchun mustaxkam asos xisoblanadi.

O`qish kitoblarida berilgan savol va topshiriqlar bolalar qiziqishlarida berilgan savol va topshiriqlarga yaqin, ularning yosh xususiyatlariga mos boelishi kerak. Shunda ular yuzasidan bolalar tugri yakuniy va umumiy xulosa chikara oladilar. Mustaqil xulosa chikarish tarbiyalovchi ta`limda muhim axamiyatga ega.



1-sinfda umumlashtiruvchi darsni muvaffaqiyatli o`tkazish unga o`qituvchining kanday tayyorgarlik ko`rganiga bog`liq. Bunday darsda juda kup material yuzasidan umumiy xulosa chiqarishni rejalashtirish mumkin emas; bu darsga kup material yuklash o`quvchilar diqqatini tarkatib yuboradi, idrok etish kobiliyatlarini pasaytiradi va faol fikrlash imkonini chegaralaydi. O`qituvchi umumlashtiruvchi darsda o`quvchilardan nimalarni surashni, mavzu yuzasidan yana nimalarni umumlashtirishni belgilab oladi; darsning maqsadi haqida uylab, bolalar tafakkuri va faoliyatini faollashtirishga ta'sir etadigan ish formalaridan foydalanishni rejalashtiradi.


Umumlashtiruvchi darsni o`qish dasturidagi har bir mavzu o`rganilgan sung utkazish shart emas. Uni fakat o`qish darsining muhim va katta bo`limi materiallari o`rganilgandan keyin utkazish maqsadga muvofik. Mavzularni urganish davrida foydalanilgan ko`rgazma kurollardan, savol va topshiriqlardan, ekskursiya, kuzatish, uchrashuv va suxbat materiallaridan umumlashtiruvchi darslarda shundayligicha - bir xilda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Umumlashtiruvchi dars oldiga kuyilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o`qituvchi kundalik mashgulotlarida foydalanilgan juda kup materiallardan har bir mavzu uchun juda muhim va xarakterlilarni tanlashi, o`quvchilar mustaqil xulosa chikara olishlariga va uz fikr - muloxazalarini mustaqil ravishda bayon etishga imkoniyatni ekskursiya va kuzatishda yozgan xotiralarni (agar bo`lsa) o`qib chikishlari, ilgari tayyorlangan rasmlarini yig`ishlari, kitobdagi materiallarni ko`zdan kechirib, qiziqarli o`rinlarini belgilashlari, u yoki bu asardan ayrim parchani yodlashlari yoki matnga yaqin bayon etishga tayyorlanishlari lozim.

Masalan, "Xalq o`giti- baxt kaliti" bo`limi materiallarini umumlashtiruvchi dars quyidagi texnologik xarita asosida tashkil qilinadi.

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Xalq o`giti- baxt kaliti" bo`limi yuzasidan umumlashtirish (noan'anaviy dars)
Mavzuga doir tayanch tushunchalar: Shu bo`limda berilgan barcha mavzulardagi tushunchalar.



Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta’rifi: Bu darsda o`zbek xalq og`zaki ijodining ertak, maqollar, topishmoqlar, xalq qo`shiqlari, latifa janriga doir o`rganilgan bilimlar takrorlanadi, umumlashtiriladi va sinovdan o`tkaziladi.

O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod: Suhbat, didaktik o`yin, ifodali o`qish, tushuntirish, munozara, musobaqa, muammoli izlanish.

Shakl: Jamoa, guruh bilan ishlash.

Jihoz: Ertakalar tasvirlangan rasmlar.

Nazorat: O`quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O`quvchilar reytingi dars oxirida e`lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta’limiy: O`quvchilarning xalq og`zaki ijodi bo`limi yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash, to`g`ri, ravon, ifodali o`qish malakalarini takomillashtirish.

Tarbiyaviy: O`quvchilarni do`stlikni qadrlashga, mehnatsevarlikka, rostgo`y va xushmuomala bo`lishga o`rgatish.

Rivojlantiruvchi: O`quvchilarning to`g`ri, ravon, ifodali o`qish malakalarini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

Dars yakunida o`quvchilarning to`g`ri, ifodali va tez o`qish malakalari takomillashadi. Xalq og`zaki ijodining o`rganilgan janrlari bo`yicha egallagan bilimlari sinovdan o`tadi. O`quvchilar o`z-o`zini anglashga, o`z xatolarini tuzatishni o`rganadilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	O`quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	Suhbat	2 daqiqa



2-bosqich (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Dars davomida rioya qilish lozim boʻlgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi.	Munozara	2 daqiqa
3-bosqich Darsning borishi	1. Oʻqituvchi tashkiliy qismni oʻtkazgach, bugungi dars mavzusini eʼlon qiladi. Darsda Laylakvoy ishtirok etadi. (Laylakvoy rolini yuqori sinf oʻquvchilaridan biri bajarishi mumkin). 2. Butun dars davomida Laylakvoy va oʻquvchilarning muloqoti boʻlib, barcha mavzularga doir bilimlar takrorlanadi. 3. Boshqotirma va rebusni yechish.	Ifodali oʻqish Suhbat Muammoli izlanish	7 daqiqa 14 daqiqa 8 daqiqa
4-bosqich mustahkamlas h	1. Oʻrganilganlar takrorlanib dars mustahkamlanadi. 2. Test yechish.	Suhbat	4 daqiqa 5 daqiqa
5-bosqich baholash Darsni yakunlash	Oʻquvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi eʼlon qilinadi va dars yakunlanadi.		2 daqiqa
6-bosqich	Latifalar oʻrganib kelish topshirigʻi beriladi.	Tushuntirish	1 daqiqa

Darsning borishi:

1. Oʻqituvchi tashkiliy qismni oʻtkazgach, bugungi mavzuni eʼlon qiladi.

Darsda Laylakvoy ishtirok etadi. (Laylakvoy rolini yuqori sinf oʻquvchilaridan biri bajarishi mumkin).



2. O`qituvchi: Bugun siz bilan bo`lim yuzasidan olgan bilimlaringizni mustahkamlaymiz. Qaysi bo`limni yakunladik? (“Xalq o`giti – baxt kaliti” bo`limini).

Shu vaqt sinfga “Laylakvoy” kirib keladi.

- Men qayerga kelib qoldim? (Maktabning birinchi sinfiga).

- Siz bu yerda nima bilan shug`ullanasiz? (Bilim olamiz).

- Juda yaxshi. Men ham nimalarni o`rganganlaringizni bilsam bo`ladimi?

O`qituvchi: - Albatta bo`ladi. Bu sinfdagi bolalar juda bilimdon. Bular hatto sening kimligingni va qaysi ertakdan kelganingni ham bilishadi.

Laylakvoy: - Rostdanmi? Qani unda ayting-chi, men kimman?

O`quvchilar: Sen “Oltin tarvuz” va “Ur to`qmoq” ertagidagi Laylakvoysan.

Laylakvoy: Juda bilimdon ekansizlar-ku. Men esa bir qancha jumboqlarni yecha olmay boshim qotdi. Sizlar uni yechishga yordamlashasizlarmi? (Ha).

- Men juda ko`p yurtlarni, o`rmonlarni, tog`larni ko`rdim. Ayrim jumboqlarni hech hal qila olmadim. Ulardan biri shuki, bir o`rmonda she`r va sichqon do`st tutunishibdi. Nega endi shunday bahaybat sher ayiq bilan emas, bo`ri bilan emas, mittigina sichqoncha bilan do`st tutingan?

O`quvchilar: “Sher va sichqon” ertagining mazmunini so`zlab beradilar.

Laylakvoy: Uni qarang-a, kim o`ylabdi mittigina sichqon shunday bahaybat sherni o`limdan qutqara oladi, deb.


Do`stlik shunchalik qadrli ekan, men ham bilib oldim. Yana do`stlik haqida nimalarni bilasiz?

O`quvchilar do`stlik haqidagi maqollar, hikmatli so`zlardan aytadilar.

Laylakvoy: Juda bilimdon ekansiz. Menga yana bir jumboqni yechishga yordam berasizlarmi? (Ha).

Men Hindistonda maymunlar to`dasiga duch keldim. Ular orasida bir maymunni ko`rdim. Unga qarab ham kulgim keldi, ham rahmim keldi. Uning dumi yo`q ekan. Buniyam sababini bilasizlarmi?

O`quvchilar: “Maymun va duradgor” ertagining mazmunini so`zlab beradilar.



O`qituvchi: Qissadan hissa shuki...

O`quvchilar: "O`zingga aloqador bo`lmagan ishga aralashma".

Laylakvoy: Demak maymunvoy o`zi bilmagan va tushunmagan ishga aralashgani uchun dumidan ayrilgan ekan-da.

Men yana bir yurtda farzad ko`rmagan bir shohnig oddiygina bir bolani farzand qilib olganini eshitdim. Nima uchun aynan shu bolani tanlaganini hech tushunmadim.

O`quvchilar "Rostgo`y bola" ertagini so`zlab beradilar.

O`qituvchi: Bolalar, keling, Laylakvoyga shu bo`limda o`rgangan maqollar, topishmoqlar, qo`shiqlarni aytib beramiz. (O`quvchilar aytadilar).

Laylakvoy: Rahmat, bolajonlar. Men sizlar bilan vaqtimni samarali o`tkazdim. Menga ko`p jumboqlari hal etishga yordamlashdinglar. Men endi qaytaman. Sizning yurtingizga esa yozda qaytib kelaman. Sizning yurtingizga esa yozda qaytib kelaman.

O`qituvchi: Xayr, Laylakvoy. Biz seni yozda mana bu qo`shiq bilan kutib olamiz.


O`quvchilar: "Laylak keldi, yoz bo`ldi" qo`shig`ini kuylaydilar. So`ng "Laylakvoy" xayrlashib chiqib ketadi.

O`qituvchi darslikdagi boshqotirma va rebusni hal etishni aytadi. O`quvchilar bu topshiriqni ham hal etadilar.

O`qituvchi mavzuga oid test savollari yordamida darsni xulosalaydi, o`quvchilar reytingini e`lon qiladi.

Yuqoridagilardan ko`rinadiki, bunday usulda tashkil qilingan va o`tkazilgan dars samaradorligi bilan ajralib turadi.


Umumlashtiruvchi dars oldiga kuyilgan vazifalarni muvaffakiyatli amalga oshirish uchun o`qituvchi kundalik mashgulotlarida foydalanilgan juda kup materiallardan har bir mavzu uchun juda muhim va xarakterlilarni tanlashi, o`quvchilar mustaqil xulosa chikara olishlariga va uz fikr - muloxazalarini mustaqil ravishda bayon etishga imkoniyatni ekskursiya va kuzatishda yozgan xotiralarni (agar bo`lsa) o`qib chikishlari, ilgari tayyorlangan rasmlarini yig`ishlari, kitobdagi



Materiallarni koʻzdan kechirib, qiziqarli oʻrinlarini belgilashlari, u yoki bu asardan ayrim parchani yodlashlari yoki matnga yaqin bayon etishga tayyorlanishlari lozim. Xususan, "Mehnatning tagi rohat" boʻlimi yuzasidan oʻtkaziladigan darsni tashkil qilish va oʻtkazish yʻollarini keltiramiz.

Darsning texnologik xaritasi



Mavzu: "Mehnatning tagi rohat" boʻlimi yuzasidan takrorlash.
Mavzuga doir tayanch tushunchalar: Boʻlimdagi barcha mavzularga tegishli tushunchalar. Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha taʼrifi: Bu darsda oʻquvchilar boʻlimda oʻrgangan bilimlarini takrorlaydilar, mustahkamlaydilar, umumlashtiradilar va oʻzlarini baholash, tashxislashga oʻrganadilar.
Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Metod: Savol-javob, suhbat, hikoya, tushuntirish, munozara. Shakl: Jamoa, guruh bilan ishlash. Jihoz: Turli kasbdagi kishilar mehnati tasvirlangan rasmlar. Nazorat: Oʻquvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. Baholash: Oʻquvchilar reytingi dars oxirida eʼlon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Maqsadlar: Taʼlimiy: Bilimlarni mustahkamlash, toʻgʻri va ifodali oʻqish malakalarini mustahkamlash. Tarbiyaviy: Oʻquvchilarni mehnat qilishga, oʻzgalar mehnatini qadrlashga oʻrgatish, turli kasblar haqida maʼlumot berish orqali kasbga yoʻnaltirish. Rivojlantiruvchi: Oʻquvchilarning toʻgʻri, ravon, ifodali oʻqish malakalarini, mehnatga muhabbat tuygʻularini rivojlantirish.
Kutilayotgan natija
Dars yakunida oʻquvchilarning toʻgʻri, ifodali va tez oʻqish malakalari takomillashadi. Oʻquvchilar har qanday mehnatni eʼzozlashga oʻrganadilar. Boʻlim



yuzasidan bilimlarini sinovdan o`tkazib, o`zlarining kamchilik va yutuqlarini bilib oladilar, kamchiliklarni tuzatishga kirishadilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	O`quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	Suhbat	2 daqiqa
2-bosqich (Refleksiya) ehtiyoblarni aniqlash	Dars davomida rioya qilish lozim bo`lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi.	Munozara	2 daqiqa
3-bosqich Darsning borishi	1. Bugungi mavzu e`lon qilinadi.	Ifodali o`qish,	1 daqiqa
	2. O`qituvchi mehnatining afzalligini tushuntirib, "Aqilli bog`bon" ertagini eslatadi. O`quvchilardan biri ertakni so`zlab beradi. Shundan so`ng matnga doir 1-test va rebus hal etiladi.	tushuntirish, test, rebus.	6 daqiqa
	3. Abdulla Avloniyning „Soqi bilan onasi“ hikoyasining mazmuni eslanadi, matnga doir testlar ishlanadi.	Ifodali o`qish	6 daqiqa
	4. Po`lat mo`minning „Yer nima der“ she`ri eslatiladi. Mavzuga doir testlar ishlanadi.	Suhbat, muammoli izlanish	4 daqiqa
	5. Shuhratning „Tugma“ hikoyasi	Suhbat, test	5 daqiqa



	eslatiladi. 6. Abdulla Avloniyning „Maqtanchoq g`oz“ hikoyasining mazmuni eslatiladi.  7. O`quvchilarning kasblar haqidagi tayyorlagan sahna ko`rinishlari tomosha qilinadi.	Ifodali o`qish, test  Hikoya, didaktik o`yin	4 daqiqa 9 daqiqa
4-bosqich mustahkamlash	Darslikdagi savol va topshiriqlar asosida dars mustahkamlanadi.	Suhbat	3 daqiqa
5-bosqich baholash Darsni yakunlash	O`quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e`lon qilinadi va dars yakunlanadi.		2 daqiqa
6-bosqich	Uyda o`z kamchiliklarini tahlil qilish va tuzatish aytiladi.	Tushuntirish	1 daqiqa

Darsning borishi:

1.O`qituvchi tashkiliy qism o`tkazgach bugungi mavzuni e`lon qiladi.


2.O`qituvchi mehnatining afzalligi, mehnat qilgan kishi rohat ko`rishini, bunga misollar juda ko`pligini, shunday misollardan biri “Aqilli bog`bon” ertagida keltirilganligini aytib o`tadi. O`quvchilardan biri ertakni so`zlab beradi. Shundan so`ng matnga doir 1-test va rebus hal etiladi.

3.Bog`bon o`g`illariga aytgan oltin qayrda ekan?

A. Yerda

B.Mehnatda

4.O`qituvchi: Mehnat doim insonni ulug`lagan. Uning sog`lom o`sishi uchun xizmat qilgan. Keling, Abdulla Avloniyning “Soqi bilan onasi” hikoyasining mazmunini eslaymiz.



O`quvchilardan biri “Soqi bilan onasi” hikoyasini so`zlab beradi. Matnga do

3-4 – testlarning to`g`ri javobi topiladi.

Soqi nega ovqatni ichmadi?

A.Bemaza tuyulgani uchun.

B.Qorni ochligi uchun.

Soqiga ovqat nega mazali tuyuldi?

A.Mehnat qilgani uchun.

B.Ochligi uchun.

5. O`qituvchi: Soqining onasi nega uni kechgacha ishlatdi? (Soqining ishtahasi ochilsin deb).

6. O`qituvchi: Demak, mehnatda gap ko`p ekan. Mehnat qilsang rohatini ham ko`rar ekansiz. Shu haqda Yer bizga nima deb uqtiradi? (Po`lat Mo`minning “Yer nima der” sheri eslatiladi). O`quvchilardan biri she`rni yoddan aytib bersa yanada

1. Yer bizga nima der ekan?

A. Menga ko`ngil ber.

B. Men senga boylik beraman.

yaxshi bo`ladi.

7. Shu mavzuga doir test savollari yechiladi: 2. Yer nima deb uqtirar ekan?

A. Mehnat qilgan halol yer.

B. Mening hosilimdan ye.

3. Peshanangdan ter to`kib ishlasang yer nima berar ekan?


A. Quvvat beradi.

B. Hosil beradi.

8. Demak, odamlar mehnat qilishga tayyor bo`lishlari kerak ekan. Biz mehnatga tayyor bo`lish haqida yana qanday hikoya o`qigan edik? (Shuhratning “Tugma” hikoyasi eslatiladi). Oquvchilardan biri hikoyaning mazmunini so`zlab beradi.

O`qituvchi: Erkinjonning buvasi nega tugmasini o`zi qadashni buyurdi? (Chunki odam bolasi har narsaga qodir bo`lmog`i lozim).

9. O`qituvchi: Biz shu bo`limda Abdulla Avloniyning yana qanday hikoyasi bilan tanishdik? (Maqtanchoq g`oz)



O`quvchilar hikoyaning mazmunini so`zlab beradilar.

O`qituvchi: G`oz nega maqtandi? (Chunki u o`zini hamma narsaga qodir deb o`ylar edi).

O`qituvchi: Qurbaqa unga nima dedi? (Chala-chulpa uch hunarni bilguncha, birini yaxshilab bilganing ma`qul). Demak, bir hunarni yaxshilab egallansa, yaxshi hunarmand bo`lar ekan. Bolajonlar, sizlar ham katta bo`lgach biror hunarni egallaysiz.

10. O`qituvchi: Dunyoda kasblar turli tuman bo`lib, ular insonlar uchun turli xizmatlarni bajaradilar. Keling o`rtoqlaringizning kasblar haqidagi tayyorlagan sahna ko`rinishlarini tomosha qilamiz.

O`quvchilar quyidagi she`rlarni aytib, kasblar afzalliklarini namoyish qiladilar:

“Novvoy” (Qo`liga non ko`tarib chiqadi):

Pishiraman shirmoy non,

Mehnat qilib to`ymayman.

Mehrim qo`shib har nonga,

Tutsam deyman insonga.

Baliqchi: (qarmoq bilan chiqadi).

Ov qilib tutib oldim,

Daryodan yirik baliq.

Ichidan chiqdi uning,

Ikkita tirik baliq.

(*Qambar O`tayev*).

“Chavandoz” (chavandoz kiymida)

Men chavandoz bo`laman,


Dada, agar ot olib,

Bersangiz tez yelaman.

G`olib chiqib uloqda,

Men sovrindor bo`laman.

(*Qambar O`tayev*)



”Kompozitor” (qo`lida sozi bilan)

Yoqimtoy kompozitor

Bo`lsammi deb o`ylayman.

O`zim yozib termasin,

O`zim keyin kuylayman.

(G`. G`ulom)

”Chevar qiz” (qo`lida do`ppi bilan chiqadi).

Chevar bo`lsa, to`qisa,

Bundan yaxshi qiz bormi.

O`zi a`lo o`qisa,

Bundan yaxshi qiz bormi.

(G`. G`ulom)

”Sportchi” (Qo`lida to`p bilan chiqadi).

Men sportchi bo`laman

To`pim to`p-to`p etasan.

Ursam uchib ketasan.

Havolanib nariga,

Do`stlarimga yetasan

(Zafar Diyor)


O`qituvchi: Mana, sinfdosh do`stlaringiz kelajakda kim bo`lmoqchi ekanligini namoyish etdilar. Endi siz kasblar haqida ma`lumotga ega bo`ldingiz.

11. Mehnatning ahamiyati haqida suhbat o`tkaziladi. O`quvchilardan kimlarning mehnatidan foydalanishlari so`raladi. Quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

Har kuni ovqatlanamiz. Oziq-ovqatni kimlar yetkazib beradi? (dehqonlar, bog`bonlar, novvoylar, oshpazlar)

Kiyimlarimizni kimlar tayyorlaydi? (tikuvchilar)

Uylarimiz eshiklari va romlarini, bizning partalarimizni kimlar tayyorlaydi? (duradgorlar)



Uzoq yo`limizni kimlar yaqin qiladi? (haydovchilar)


Sog`ligimiz yomonlashsa, kimlar yordam beradi? (shifokorlar) va hokazo savollar berib, o`quvchilar javoblarini umumlashtiradi va mehnatning hamma turi ham insonlar uchun xizmat qilishini va uni hurmat qilish lozimligini tushintiradi.

Dunyoda juda ko`p kasblar bor. Har kim ulardan o`ziga mosini tanlab oladi. Siz ham kelgusida biror kasbni tanlab, Vatanimizga, xalqimizga xizmat qilasiz. Buning uchun a`lo baholarga o`qish lozim.

Shundagina yaxshi kasb egasi bo`lasiz.

12. O`qituvchi darsni xulosalaydi, o`quvchilarni baholaydi va darsni yakunlaydi.


1-sinfda umumlashtiruvchi darsni muvaffaqiyatli o`tkazish unga o`qituvchining qanday tayyorgarlik ko`rganiga bog`liq. Buning uchun o`qituvchi bollarni darsga qiziqtiradigan metodlardan unumli foydalanishlari, dars samaradorligini oshirishga qaratilgan usullardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.




Xulosa

Mazkur bitiruv malakaviy ishida berilgan vazifalar o'rganilib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Yoshlarni milliy istiqlol ruhida ma'naviyatli, barkamol avlod sifatida tarbiyalab yetishtirish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Mana shu dolzarb masalani amalga oshirishda 1-sinf o'qish darslari ham alohida o'rin tutadi.
2. 1-sinf o'qish darslarini tashkil qilish va o'tkazishning rang-barang usullaridan foydalanish ularning samarador bo'lishini ta'minlaydi.
3. 1-sinf o'qish darslarini samaradorligi uning pedagogic texnologiyalar asosida loyihalashga bog'liq. Buning uchun berilgan talablar asosida darsning texnologik xaritasi (yoki loyihasi) tayyorlanadi, dars loyihasi tayyor bo'lgach darsning algoritmi ishlab chiqiladi.
4. 1-sinf o'qish darslarining tuzilishi, ta'lim-tarbiyaviy maqsadi, dars tipi va o'rganiladigan materiallarning xususiyatiga ko'ra turli xildir. Ularning bu xususiyatlariga loyihalashda katta e'tibor qaratiladi. .
5. 1-sinf umumlashtiruvchi darslarini to'g'ri tashkil qilish uning xususitalari bilan bevosita bog'liqdir.
6. 1-sinfda o'qish darslari qurilishida qat'iy andaza, birinchidan, ijodkorlikka yo'l bermaydi. Ikkinchidan, o'quvchilarning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Shuning uchun 1-sinf o'qish darslarini turli noan'anaviy tarzda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.
7. 1-sinf o'qish darslarida modulli o'qitishdan foydalanish ham yaxshi samara berdi.
8. 1-sinf o'qish darslarida quyidagi talablar amal qilinadi:
 - ta'lim va tarbiya maqsadining birligi;
 - ta'lim va tarbiya vazifalarining birligi;
 - ta'lim va tarbiya manbalarining uzviy bog'liqligi;
 - ta'lim va tarbiya metodlarining birligi.




9. Har bir dars pedagogik, psixologik, metodik tomondan to'g'ri tashkil etilishi, didaktik talablarga amal qilgan holda o'tkazilishi kerak. O'qituvchi darsda vaqtni to'g'ri taqsimlashi, undan unumli foydalanishi zarur. O'qish darsi o'zining mazmuni va mundarijasi jihatidan boshqa darslardan farq qilishi va ta'limda yetakchi ahamiyat kasb etishi kerak.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. -Toshkent, “O'zbekiston”, 2010. y.74-75-betlar.
3. O'zbekiston prezidenti I.A.Karimovning BMT bosh assambleyasining mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oily darajadagi yalpi majlisdagi nutqi.- Toshkent. “O'zbekiston”, 2010. -y. 11-bet.
4. Karimov I.A. . Mamlakatni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir.- Toshkent, 2010. 4-b.
5. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni // Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq” nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
6. O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq” nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
7. Barkamol avlod orzusi (Tuzuvchilar: Qurboniv Sh., Saidov H., Ahliddinov R.)- Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1999.
8. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standart i// Boshlang'ich ta'lim .- Toshkent, 2005.- 5-son, 5,6,8-9-betlar.
9. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi o'quv dasturi // Boshlang'ich ta'lim .- Toshkent, 2005.- 5-son, 21-33-betlar.
10. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi// Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son.
11. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.- Toshkent, 2010.
12. Anorboyev A. Badiiy asar- ma'naviy boylik// Boshlang'ich ta'lim, 2008, 6-son, 18-bet.
13. Avezov S. Milliy istiqlool g'oyasi mezonlari// Boshlang'ich ta'lim, 2006, 12-son, 10-bet.



14. Matchonov S., G`ulomova X. va boshqalar. Boshlang`ch sinf o`qish darslari pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.- Toshkent: , “Yangiyul Poligraph servise”, 2008.
15. Nazarova H., Anorboyeva A. O`qish darsi- nafosat olami // Boshlang`ich ta`lim, 2008, 11-son, 5-bet.
16. Qosimova K., Matchonov S. , G`ulomova X., Yo`ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o`qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.
17. Ro`ziyeva G., Qorayev Z. Folklordan foydalanish// Boshlang`ich ta`lim, 2009, 3-son, 6-bet.
18. Safarova R., Musayev U., Musagev P., Yusupova P., Nurjanova R. O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta ta`lim strategiyasi muammolari va ta`lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo`llari. –Toshkent, 2005.
19. Sattarova M., Sharipova R. Mukammallik yo`lida// Boshlang`ich ta`lim, 2008, 3-son, 14-15-betlar.
20. Zuhra Ilyos qizi. Ma`naviyati yuksak avlod- Vatan ishonchi // Boshlang`ich ta`lim, 2009, 10- son, 21- bet.
21. G`afforova T. , G`ulomova X. O`qish darslari. 1- sinf (o`qituvchilar uchun metodik qo`llanma)– Toshkent, “Tafakkur” nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2011.
22. O`qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. – Toshkent, ”Sharq” nashriyot-matbba aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2012.
23. Internet ma`lumotlari: [www ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)